

SHODMONQUL SALOM LIRIKASIDA PUNKTUATION BIRLIKLARNING METAFORIK TALQINI

Sobirova Ismigul

Qo'qon davlat universiteti talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek lirikasida tinish belgilarining badiiy, semantik va metaforik talqini chuqur tahlil qilinadi. Nuqta, vergul, undov, so'roq va boshqa punktuatsion birliklarning she'riy matndagi ramziy vazifalari, ularning lirika qahramonining ichki kechinmalari, ruhiy holati va his-tuyg'ularini ifoda etishdagi roli o'rganiladi. Maqola punktuatsiya vositalari orqali shakllangan semantik qatlamlarni, badiiy xususiyatlarni va o'quvchi ongidagi hissiy ta'sirni yoritadi.*

Kalit so'zlar. *Puntuatsiya, tinish belgisi, lirika, metafora, semantika, badiiy ifoda, ichki kechinma, ruhiy holat, she'riy matn, ramziy ma'no, emotsional ta'sir.*

Аннотация. *В статье проводится глубокий анализ художественной, семантической и метафорической интерпретации знаков препинания в современной узбекской лирике. Рассматриваются символические функции точки, запятой, восклицательного и вопросительного знаков, их роль в выражении внутренних переживаний, эмоционального состояния и чувств лирического героя. Статья раскрывает пунктуацию не только как грамматическое средство, но и как мощный поэтический прием, формирующий смысловые слои и художественные особенности текста, вызывающие эмоциональный отклик у читателя.*

Ключевые слова. *Пунктуация, знаки препинания, лирика, метафора, семантика, художественное выражение, внутренние переживания, эмоциональное состояние, поэтический текст, символика, эмоциональное воздействие*

Annotation . *This article presents a comprehensive analysis of the artistic, semantic, and metaphorical interpretation of punctuation marks in contemporary Uzbek lyric poetry. It explores the symbolic functions of periods, commas, exclamation, and question marks and their role in expressing the inner experiences, emotional states, and feelings of the lyrical subject. The study reveals punctuation not only as a grammatical tool but also as a powerful poetic device shaping semantic layers and artistic features of the text that evoke an emotional response from the reader.*

Keywords. *Punctuation, punctuation marks, lyric poetry, metaphor, semantics, artistic expression, inner experiences, emotional state, poetic text, symbolism, emotional impact.*

Zamonaviy o‘zbek she’riyatida timsollar tili tobora murakkablashib, metaforik ifodaning yangi qirralari ochilmoqda. Ayniqsa, lirik “men”ning ruhiy holatini obrazlar orqali emas, balki punktuatsion belgilar orqali ifodalash holatlari Shodmonqul Salom ijodida o‘ziga xos estetik yondashuv sifatida ajralib turadi. U tinish belgilarini — nuqta, vergul, so‘roq, undov, qo‘shirnoq kabi til birliklarini inson ruhiyatining ramzlari sifatida talqin etadi. Shoir uchun tinish belgisi nafaqat uslubiy bezak, balki ruhi va tanasi parchalanayotgan insonning belgisi fragmenti. Bunday yondashuvda punktuatsiya — she’rning grammatikasi emas, balki qalbning grammatikasıdır. Bu esa lirik “men”ning ma’naviy tahlilini yana-da chuqurlashtiradi. “Men uch qator she’rday tug‘ildim” she’ri eksistensial iztirob va punktuatsion hayot haqidadir. Shodmonqul Salomning quyidagi satrlari o‘z-o‘zini timsollashtirishning o‘ziga xos namunasi bo‘lib, unda punktuatsion birliklar orqali hayotiy iztirob ifoda etiladi:

Men uch qator she’rday tug‘ildim,
Tinish belgim – nuqtadir yurak.
Qofiyali she’rday eshildim,
Shu uchlikni tugatmoq kerak.

Bu yerda “nuqtadir yurak” ifodasi juda kuchli metafora bo‘lib, inson hayoti yakun topganda qo‘yiladigan nuqta bilan tenglashtiriladi. Yurak — bu najot emas, balki oxirgi belgidir. “Uch qator she’r” esa hayotning qisqaligi, noaniqligi, yakunlanish muqarrarligini ifodalaydi.

Shoir o‘zini she’rga qiyoslabgina qolmay, barcha tana a’zolarini tinish belgilari orqali talqin etadi:

Boshim – vergul, qo‘llarim – so‘roq,
Yiroq, firoq – qofiya takror,
Ikki ko‘zim – mangu qo‘shirnoq.

Bu satrlar – inson tanasining grammatik portreti. Bosh — fikr oraliqlari, ya’ni vergul. Qo‘llar esa doim nimanidir izlaydi — so‘roq. Ko‘zlar esa abadiy qo‘shirnoq ichida, ya’ni hayot va soxta so‘zlar orasida yashiringan haqiqat timsolidir. Shu tarzda shoir tinish belgilari orqali tanani emas, tafakkurni tasvirlaydi.

Yakuniy baytlarda esa hayot “she’r” sifatida oxiriga yetadi:

Ming bor tahrir bo‘lishim kerak,
So‘ng yozilar to‘rtinchi qator.

Hayot — chiziqli emas, tahrir talab qiladi. Va har qanday oxir — bir “to‘rtinchi qator” bilan davom etadi. Bu “to‘rtinchi qator” — balki abadiyat, balki quvg‘in, balki ikkinchi hayot. She’r ochiq qoldirilgan, xuddi inson taqdiri kabi.

Bundan tashqari shoirning “Maktab yo‘lida” she’rida punktuatsion dramatism va ichki ziddiyatlar aks etgan. Ikkinchi she’rda esa shoir punktuatsiyani ruhiy holat, his-tuyg‘u kuchi sifatida ishlatadi. Dastlabki baytlarda bu juda yaqqol ko‘zga tashlanadi:

Jim ketayapti, qaddi – undov, qalbi – so‘roq,

Jim ketayapman, ko‘zlar – nuqta, ko‘nglim – savol.

Bu yerda har bir belgining ma’naviy yuklamasi bor:

Undov — his-hayajon, kuchli ifoda.

So‘roq — ichki savollar, azobli kechinmalar.

Nuqta — najotsizlik, tugash.

Savol — yo‘qsizlik, ma’nosizlik.

Bu belgilar hissiy portret yaratishda vosita sifatida ishlatilmoqda. She’r davomida bu ruhiy holat kuchayib boradi:

Jim ketayapmiz, o‘rtamizda masofalar,

Va yo‘llarning xatm qilgan oyatlari.

Va toshlarning oy qirrasini tilib o‘tgan,

Yuragimga chekib ketgan dastrozlari.

Bu baytlar zamonaviy lirikaning yangi shaklidir: punktuatsiya belgisi she’rning strukturaviy elementi emas, balki uning g‘oyaviy markazi bo‘lib xizmat qilmoqda. Shodmonqul Salom verbal hissiyotlarni grammatik timsollar orqali berish yo‘lini tanlagan. Bu esa uni boshqa shoirlardan ajratib turadi.

Yakuniy baytlarda bu bo‘shliq va belgisi iztirob yana kuchayadi:

Shu bo‘shliqqa yillarimni toshday otib,

O‘n qadamni qisqartolmay tezlaydirman.

Qaddi – undov, nigohlari zo‘r topishmoq,

Topishmoqqa hanuz javob izlaydurman.[1]

Bu satrlarda topishmoq — hayotning timsoli, undov — kuch, so‘roq — noaniqlik. Shoir uchun hayot grammatika emas — bu jazirama savol, doimiy bo‘shliq, va iztirobli tinish.

Shodmonqul Salom lirikasida punktuatsion birliklar — oddiy grammatik vosita emas, inson ruhining metaforik aksidir. Nuqta — yurak, vergul — tafakkur to‘xtashi, qo‘shirnoq — abadiy mahkumlik, so‘roq — mavjudlik iztirobi, undov — hayotning ichki qichqirig‘i. Bu belgilar orqali shoir yangi poetik til, yangi obrazlar va yangi dramatism yaratadi.

Demak, Shodmonqul Salom punktuatsiyani nafaqat so‘zlar orasidagi tinish, balki insonga tegishli eksistensial belgilar sifatida talqin qiladi. Bu esa uning she’riyatini zamonaviy adabiy tafakkurda o‘ziga xos, chuqur ma’naviy qatlamlarga ega bo‘lgan adabiy hodisaga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.@Shodmonqul_Salom telegram sahifasi
- 2.Ra'no Mullaxo'jayeva."Tafakkur yangilanishi".Muharrir nashriyoti.Toshket—2019
- 3.Vahob Rahmonov.She'r san'atlari.,,Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati.Toshkent—2020
- 4.Is'hoqov Y.So'z san'ati so'zligi.T: Zarqalam—2006